



1991-yildan
chiqa boshlagan

2024-yil. 1-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

2024-YIL – "YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI"



Ushbu sonda



DOLZARB MAVZU

O'zlikni topish yo'lida

3
-
bet



TILSHUNOSLIK

Hissiy holat, sezgi
fe'llarining so'z
turkumlari va til
tizimidagi o'rni

8
-
bet



TADQIQOT

Ingliz va o'zbek tillarida
joy nomlarining
perifraza
stilistik vositasidagi
ifodasi

38
-
bet



ИЗУЧАЕМ ЛИТЕРАТУРНЫЕ ПАМЯТНИКИ

«Памятник» А.С.Пушкина:
традиция и новаторство

63
-
bet

SHE'RIYAT – O'ZBEGIM, O'ZBEKISTONIM!



Shoir, tarjimon va jurnalist **Asror Mo'min 70 yoshga** to'ldi. U 1954-yil 14-yanvar kuni G'allaorol tumanidagi Qo'ytosh qishlog'ida tug'ilgan, Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zMU)da tahsil olgan. Shoirning "Shirin olma", "Munir ishq", "Umrin fasllari", "Navoiynoma", "Shukur. Sabr. Umid!" kabi o'n beshta she'riy kitobi nashrdan chiqqan, "Umid va Orzu", "Anna va Zbignev" dostonlari,

"Rasul Hamzatov", "Qush tili" va "Hazrat Navoiy" dramalari e'lon qilingan. Tarjimon sifatida o'nlab kitoblarni, jumladan, dunyoga mashhur Lev Tolstoyning "Hojimurod" qissasi, Qaysin Quliyevning "Qish edi..." romani, Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" badiasi, Robert Rojdestvenskiyning "Shahidlar yodi" va David Qug'ultinovning "Shohmotchi" dostonlari singari asarlarni ona tilimizga o'g'irgan.

Asror Mo'min Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmasi a'zosi. "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist" Faxriy unvoni, "Shuhrat" medali va "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan mukofotlangan.

Jurnalimizda Asror Mo'minning "Qush tili" dramasi, "O'zbek tilim va Navoiy quyoshi", "Navoiy navosida o'zbekim vasfi", "Qoyalar – jim turgan buyuk haqiqat", "She'rlaringa hikmat yo'g'rildi ona", "Uyg'oning odamlar, bo'lingiz ogoh!" kabi adabiy maqolalari va taniqli adiblarning asarlaridan qilgan tarjimalari nashr etilgan. Biz e'tiboringizga uning she'rlaridan namunalarni havola qilamiz.

SHE'RIYAT

She'riyat – yer-suvim, havo, osmonim,
She'riyat – umidim, orzu, iymonim,
She'riyat – millatim, xalqim, lisonim,
She'riyat – o'zbekim, O'zbekistonim!

She'riyat – umr gulim, humo, jayronim,
She'riyat – unvonim, shavkatim, shonim,
She'riyat – niyatim, duo, rizvonim,
She'riyat – o'zbekim, O'zbekistonim!

She'riyat – olamim, borligim, borim,
She'riyat – qardoshim, do'stlarim, yorim,
She'riyat – qalamim, qog'ozim, torim,
She'riyat – o'zbekim, O'zbekistonim!

She'riyat – Allohdan, har so'zi labib,
She'riyat – Ibn Sino, benazir tabib,
She'riyat – Navoiy, ishonchli habib,
She'riyat – o'zbekim, O'zbekistonim!

She'riyat – hurlikni kuylagan ovoz,
She'riyat – xayolot ko'kida parvoz,
She'riyat – avlodga meros ochiq roz,
She'riyat – o'zbekim, O'zbekistonim!

Bahodir Jovliyev,

"Til va adabiyot ta'limi" jurnali bosh muharriri

К ЮБИЛЕЮ АННЫ ГЕННАДЬЕВНЫ ШЕРЕМЕТЬЕВОЙ



Анна Геннадьевна Шереметьева – доктор филологических наук, профессор кафедры русского языкознания Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека – родилась 30 января 1954 года в городе Ташкенте, с золотой медалью окончила среднюю школу №146, в 1976 году с отличием окончила филологический факультет ТашГУ.

Работала корректором в издательстве «Узбекистан», младшим ла-

борантом на кафедре русского языкознания, параллельно вела занятия в студенческой аудитории, в 1978 г. стала преподавателем этой кафедры, после защиты кандидатской диссертации (1983 г.) доцентом, после защиты докторской диссертации (2001 г.) прошла по конкурсу на должность заведующей кафедрой русского языкознания, которая под руководством Анны Геннадьевны сохранила и продолжила лучшие традиции русистики Узбекистана, была одной из выпускающих кафедр русской филологии.

С 2014 г. профессор А.Г.Шереметьева постоянно осуществляет научную и методическую помощь коллегам и своей кафедры, и преподавателям вузов, лицеев и школ республики, активно сотрудничает с русским культурным центром и Россотрудничеством Республики Узбекистан, участвует в Международных конгрессах (г. Минск, 2005; г. Москва, 2006; 2007), в 2023 году достойно представляла русистику Узбекистана на Международном Костомаровском форуме (г. Москва).

Анна Геннадьевна прошла все должностные ступени и в исследовательской деятельности – от научного секретаря до председателя Научного совета по присуждению ученых степеней при НУУз, работала в качестве эксперта ВАК РУз.

Анна Геннадьевна – автор более 200 научных исследований, среди которых монографии, учебные пособия, методические рекомендации и разработки, статьи в научных республиканских и международных журналах, научный редактор и соавтор в научных сборниках статей.

Можно выделить несколько основных направлений постоянного научного поиска юбиляра. Среди них – история русского языка: многие годы Анна Геннадьевна ведет интереснейший курс «История русского литературного языка», рассказывая о тайнах происхождения и этапах развития русского литературного языка, о многообразии и своеобразии его диалектов; является автором учебного пособия «История русского литературного языка» (в соавт.), многочисленных статей.

Русской палеографии посвящены авторские спецкурсы для бакалавриата «Основы славянской книжности» и магистратуры «Русская палеография». Материалы исследований и самого юбиляра, и ее учеников легли в основу монографии «Палеографические этюды». В 80- и 90-х годах XX века разработанный Анной Геннадьевной курс палеографии открыл новое направление в учебной и научной деятельности кафедры.

Общее языкознание. Анна Геннадьевна уделяет большое внимание содержанию преподносимого студентам теоретического материала, ответственно подходит к учебным материалам с учетом современных требований образования: в соавторстве с ведущими учеными нашего университета профессором А.А.Абдуазизовым и доцентом

А.М.Зализняк были подготовлены пособия «Теоретическое языкознание. Введение в языкознание», «Общее языкознание».

Проблемы русского словообразования. Возникшая во время работы над кандидатской диссертацией любовь к данному направлению языкознания помогает Анне Геннадьевне создавать интересные научно-исследовательские и методические проекты. Свои блестящие лекционные и семинарские курсы для бакалавров по русскому словообразованию она активно поддерживает учебными и методическими пособиями, формирующими новое поколение педагогов-исследователей. Под научным руководством Анны Геннадьевны по словообразованию ее ученики защищают магистерские и кандидатские диссертации, работают в различных вузах нашей республики.

В 2011 г. по инициативе Анны Геннадьевны возобновился семинар «Актуальные проблемы русского словообразования», задача которого – сохранение и развитие узбекистанской школы русского словообразования. В 2021 г. благодаря стараниям Анны Геннадьевны, ее учеников и коллег семинар приобрел статус республиканской конференции, а в 2024 г. – международной; в рамках конференции поднимаются вопросы и проблемы по словообразовательным аспектам, на площадке данной конференции свои исследования представляют опытные ученые, преподаватели и первые экспериментальные наблюдения докторанты, магистранты, студенты из разных городов Узбекистана и ближнего зарубежья. Для многих эта конференция стала научной платформой для апробации докторских диссертаций. По итогам конференций выпущены содержательные сборники научных статей. Ретроспективный анализ исследований показывает огромный потенциал, верность научной школы традициям и открытость инновациям.

Проблемы русской вариологии переросли в идею о вариантности на всех уровнях языка. Докторская диссертация по этой теме легла в основу монографии «Основы общей и русской вариологии», разработан авторский спецкурс для специальности магистратуры «Лингвистика (русский язык)».

На основе даже краткого обзора научных направлений и работ юбиляра можно говорить о необыкновенном таланте Анны Геннадьевны сделать научную тему актуальной, видеть ее многообразие и разрабатывать с учетом новых реалий, а также о замечательной способности одинаково плодотворно работать в разных научных жанрах.

Любовь и уважение к университету, своему делу, коллегам подтолкнули к созданию монографии «Русское языкознание в Национальном университете Узбекистана» (в соавт.) об истории создания кафедры русского языкознания, с именами языковедов, внесших вклад в преподавательское и научно-исследовательское дело не только нашего университета, но и нашей республики начиная с 1946 г.

Имя профессора А.Г.Шереметьевой широко известно научно-педагогической общественности Узбекистана и России, она награждена орденом «Дустлик» (2008), медалью Пушкина (2010), юбилейной медалью имени Чехова от Союза писателей России, почетным знаком «За вклад в развитие русской культуры в Узбекистане» (2019), почетным знаком «Гордость университета» в честь 105-летия НУУз (2023).

Профессор А.Г.Шереметьева – выдающийся учёный, замечательный учитель, популяризатор науки и ее отличный организатор, обладающий лучшими человеческими качествами – сегодня полна творческих планов и замыслов.

Желаем дорогой Анне Геннадьевне крепкого здоровья, воплощения всех научных идей и новых исследовательских проектов.



«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»



Поиск по сайту

**2024-YIL UCHUN OBUNA BOSHLANDI!
ОБЪЯВЛЯЕМ О НАЧАЛЕ ПОДПИСКИ НА 2024 ГОД!**

Imtiyozli narxda obuna bo'lishga shoshiling*
Спешите подписаться на журнал по льготной цене*

Imtiyozsiz / без льготы – 580 000 so'm/cum
Imtiyozli / льготная – 500 000 so'm/cum

Tahririyat orqali to'g'ridan-to'g'ri obuna bo'lsangiz, jurnalning o'z manzilingizga yetib borishi kafolatlanadi.



Click tizimi orqali jurnalga yillik obuna bo'lib, 12 ta sonini o'qishga muvassar bo'ling
Подпишитесь через Click и получите доступ к чтению 12 номеров журнала

***Imtiyozli narx 2023-yil 31-dekabr gacha amal qiladi.**
***Льготная цена действительна до 31 декабря 2023 года.**

Tahririyat manzili: Shayxontohur tumani Navoiy ko'chasi 30-uy.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz
Telefon raqamlarimiz:
Bosh muharrir o'rinbosari: (71) 233-03-62
Mas'ul kotib: (71) 233-03-10
Adabiyot o'qitish metodikasi bo'limi:
(71) 233-03-45
Til o'qitish metodikasi bo'limi:
(71) 233-03-67

Chet til o'qitish metodikasi bo'limi:
(71) 233-03-67
Преподавание языка и литературы:
(71) 233-03-67
Hisobxona: (71) 233-03-68



@TAT_JURNAL



ИНДЕКС 872



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2024-yil.
1-son.

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Adiba DAVLATOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2024.25.01. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garnituras. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 2420 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

Dolzarb mavzu

Qozoqboy Yo'ldosh. O'zlikni topish yo'lida 3

Tilshunoslik

Charos Jumanioyova. Obyektiv belgi va uning semantik strukturasini 7
Farxod Muxamedjanov. Hissiy holat, sezgi fe'llarining so'z turkumlari va til tizimidagi o'rni 9
Muyassarxon Baxriddinova. Yuridik terminlar tarixidan 12
Dilafr'o'z Otamurodova. Hozirgi zamon fransuz tilida dialoglarning lingvopragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari 14
Doston Jo'ramurodov, Kamilla Rashidova, Mubina Soleyeva. Yapon tilida sifat so'z turkumining grammatik xususiyatlari va uning gapda aniqlovchi vazifasida kelishi 15
Mastona G'oziyeva. Nutqiy aktlar nazariyasi va mavjud muammolar 17
Sevinj Shabanova. Pragmatika - tilshunoslikning muhim bo'g'ini 19

Ilg'or pedagogik texnologiyalar

Dilfuza Normamatova. Xorijiy tilda bosqichli tizim orqali matn yaratishda savollarning ahamiyati 20
Madina Ashirbayeva, Sevinch Jo'rayeva. Xorijiy tilni o'qitishda gapirish ko'nikmasini rivojlantirish va shu ko'nikmani o'rgatish uchun to'g'ri metodlarni tanlash 23
Nafisa Jalilova, Nozanin Abdusamatova. Paremiologik birliklarni lingvistik nuqtayi nazardan o'rgatish metodikasi 24
Ug'loy Kusanova. Comics in English language teaching: to be or not to be at secondary school? 26
Makhlilo Safarova. Interactive teaching methods in teaching literature 28
Dilnoza Salaxova. Ispan tilini o'qitishning samarali usullari 29
Mahliyo Djakbarova. Mulozamatli so'zlardan foydalanish usullari 31

Tahlil

Mo'min Turdibekov. Toponimikaning yondosh fanlar bilan munosabati 32
Farangis Meylikova. The comparative analysis of the concept of "children" in the works of Mark Twain and Gafur Gulam 35
Lola Kodirova. Theodore Dreiser's American Tragedy and its main character Roberta Alden in Russian and Uzbek translations 36

Tadqiqot

Hushnuda Samigova, Zarina Abdullayeva. Ingliz va o'zbek tillarida joy nomlarining perifraza stilistik vositasidagi ifodasi 38
G'iyosiddin Usmonov. Fitratning badiiy asarlari inglizcha tarjimalariga ilmiy munosabatlar 40
Salohiddin Rahmonov. O'g'uz lahjalarining o'rganilish tarixi 42
Feruza Umurova. Xushmuomalalik sotsiopragmatik hodisa sifatida 43

Tarjimashunoslik

Sarvara Akobirova. G'afur G'ulom va Lengston Hyuz - buyuk tarjimonlar 45

Kichik tadqiqot

Nilufar Muminova. "Temurnoma" asaridagi ba'zi antroponimlar xususida 47
Nigora Ne'matova. Mustaqil ta'lim 48

Методика. Опыт

Замира Нурманова. Деепричастие как особая форма глагола. Признаки глагола и наречия у деепричастия. Синтаксическая роль деепричастия в предложении 49

Из опыта преподавателя

Исмигул Хушмуродова. Развитие профессиональной компетентности будущих учителей 52
Наргис Саримсакова. Проблемы формирования орфоэпической компетенции курсантов при обучении русскому языку 53
Наргиза Хамраева. О самостоятельной работе обучающихся на уроках литературы 55
Наргиза Ходжаева. Тенденции развития русской лингвистики 58

Языкознание

Бахтиёр Гафуров. Структуризация английского лексического субстанданта в лингво-терминологической плоскости 60
Лола Туйлиева. Активные процессы глаголов состояния в конце XX-начале XXI века 61

Изучаем литературные памятники

Кодиржон Носиров. «Памятник» А.С.Пушкина: традиция и новаторство 63

Научные исследования

Аль-Мария Бабарахимова. Фонетические признаки старославянизмов в лингвистическом источнике XVII века «Вести-Куранты» 66
Шахрибону Махмудова, Анвар Мухиддинов. Типы неологизмов в современной российской рекламе 69
Шохинохон Олимова, Анвар Мухиддинов. Фразеологизмы с компонентом-зоонимом в английском и русском языках 72
Замира Мелибоева, Гульмира Мамажанова. Специфические особенности использования заимствований в языке рекламы 74

Формы обучения

Нуржамал Сапарова. Система упражнений (учебно-языковых заданий) по обучению студентов-билингвов пословицам русского языка 76
Ирина Ткебучава, Кумуш Турсунова. Образы-олицетворения в поэзии А.Твардовского и М.Исаковского 79

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika
fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

The external cause which brings forth such confusion in Clyde's thoughts, though apparently quite insignificant, initiates a chain of events which culminate in Roberta's death and Clyde's conviction. Dreiser is dialectical; he does not try to transform Clyde into an inveterate scoundrel and rascal and murderer, nor does he justify his actions. He wants to point out the true culprits guilty of Roberta's death, to show the moral degeneration of Clyde, who, in assimilating the spirit of individualism of his surroundings, becomes a criminal before he has committed a crime. For Clyde understands that if he gets rid of Roberta by drowning her in the lake, he will have become a murderer. He hesitates, thinking through all the possible consequences of his deed. An eternal struggle goes on inside him, one which testifies to his mental confusion. And Dreiser passes sentence not so much on Clyde as on those who have morally prepared him to commit the crime.

People like Clyde's and Roberta's parents live in an illusory world far from reality; they "are born, pass through and die out of the world without ever quite getting any one thing straight. They appear, blunder, and end in a fog."

"... которые рождаются, живут и умирают, так и ничего и не поняв в жизни. Они появляются, блуждают наугад и исчезают во мгле."

"... tug'ilgan ko'yi, hayotda hech bir narsani tushunmaganicha yashab o'tib ketaveradiganlar jumlasidan edi. Bunaqa odamlar dunyoga kelib, tavakkaliga tentirab, yana yo'q bo'lib ketaveradilar."

Dreiser sees the essence of Americanism in this phenomenon: "As for the parents of Roberta, they were excellent examples of that native type of Americanism which resists facts and reveres illusions."

"Родители Роберты были классическими американцами старого склада – из тех что отвергают факты и чтут иллюзии."

"Robertaning ota-onasi eski taxlitdagi faktlarni inkor etib, xayolotni a'lo ko'radigan amerikaliklarning klassik vakillari edilar."

An American Tragedy closed a very important chapter in the history of the battle for realistic art in the

United States, against the limitations insisted upon by critics and publishers. Even William Dean Howells, a friend of Mark Twain and theorist of realism, acknowledged these demands at the end of the 19th century. In 1891, Howells affirmed that in America it would be impossible to find a book dealing with a subject similar to that of Dostoyevsky's "Crime and Punishment". He wrote, "...it is one of the reflections suggested by Dostoyevsky's novel, "The Crime and the Punishment", that whoever struck a note so profoundly tragic in American fiction would do a false and mistaken thing Our novelists, therefore concern themselves with the more smiling aspects of life, which are the more American, and seek the universal in the individual rather than the social interests". An American Tragedy became the banner of critical realism in 20th century American literature. It set the basic trend for the future development of American Literature. The flowering of critical realism in the United States is directly connected with the appearance of An American Tragedy. As a writer and humanist Dreiser saw the hostility of the capitalist system toward the individual and could not help searching for ways which would allow the personality to develop in true freedom. He said he had "no theories about life, or the solution of economic and political problems". And to this day the author of An American Tragedy remains the greatest master of realistic literature in 20th century America. It is no accident that the sixties witnessed a revival of interest in Dreiser's works. The campaign of conformist criticism begun by Lionel Trilling shortly after the author's death in 1945 came into an inglorious end. Faulkner paid tribute to Dreiser. The vitality of the Dreiser tradition, which opened up a new epoch in American Literature, has been registered by the greatest American writers of the 20th century. This is a tradition of realistic art, which has given rise to the best works of 20th century American Literature: An American Tragedy, A Farewell to Arms, The Grapes of Wrath. Despite the prohibitions and entreaties of reactionary criticism this tradition continues to survive in those works of contemporary American Literature which stand up for truly humane ideals.

References

1. Theodore Dreiser. An American Tragedy. – New York: New American Library, 1964.
2. Теодор Драйзер. Американская трагедия. – Москва: Правда, 1987.
3. Teodor Drayzer. Amerika fojiasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

Tadqiqot



Hushnuda SAMIGOVA,
O'zbekiston jahon tillari universiteti, pedagogika fanlari doktori (DSc);
Zarina ABDULLAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA JOY NOMLARINING PERIFRAZA STILISTIK VOSITASIDAGI IFODASI

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi joy nomlarining perifraza stilistik vositasi orqali ifodalanishi o'rganilib, misollar orqali tahlil qilingan hamda ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirilgan.

Kalit so'zlar: stilistika, frazeologiya, psixolingvistika, pragmatika, leksik-semantik, lingvokulturologik, semantik-kognitiv.

Annotation. The article studies and analyzes through examples the expression of English and Uzbek place names by means of the stylistic tool of periphrasis, as well as clarifies their similarities and differences.

Keywords: stylistics, phraseology, psycholinguistics, pragmatics, lexico-semantic, linguocultural, semantic and cognitive.

Аннотация. В статье изучается и анализируется на примерах выражение английских и узбекских топонимов посредством стилистического инструмента перифраз, выясняются их сходства и различия.

Ключевые слова: стилистика, фразеология, психолингвистика, прагматика, лексико-семантический, лингвокультурологический, семантико-когнитивный.

Bugungi kunda tilshunoslikda til birliklari mazmunidagi nominatsiya va semantik o'ziga xosliklarni o'rganish sohadagi eng ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Xususan, tillardagi atoqli otlarning nominativ funksiyalari tadqiqi tilshunoslikning ko'plab yo'nalishlarida amalga oshirilmoqda. Jumladan, geografik joylar, kishilar va voqea-hodisalarning nomlarida aks etuvchi atoqli otlar lingvokognitologiya va lingvokulturologiyada o'ziga xos struktural-semantik birlik sifatida pretsedent, alohida nominativ birlik va metafora shaklida D.B.Gudkov, Y.D.Apresyan kabi olimlar tomonidan keng tahlil qilingan. Atoqli otlarni ikkilamchi nominativ vosita va frazeologik birlik, perifraza hodisasi sifatida tahlil qilish borasida olib borayotgan tadqiqotimiz o'ziga xos yangilik bo'ladi.

Yuqorida tilga olingan fikrlarga asoslanib, tilshunoslikda qo'llaniladigan "atoqli otlar perifrasi" atamasiga oydinlik kiritish maqsadga muvofiq. Bunda ularning nominativ vazifasi ustuvor ahamiyat kasb etib, alohida til birligi shaklida qo'llanilishi nazarda tutiladi. Atoqli otlar perifraza shakllarini alohida nominatsiya birligi sifatida tadqiq qilgan olimlar orasida I.A.Melchuk, A.K.Jolkovskiy, Y.D.Apresyanlarning izlanishlari alohida e'tiborga loyiq. Chunonchi, bu olimlar til birliklarining tasviriy ifodalari nutq paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllana boshlagan hodisa ekanini e'tirof etgan bo'lib, ular orasida aynan Y.D.Apresyan perifraza birliklari "tilning tasviriy tizimiga tegishli" [1] ekanini isbotlab bergan edi.

"Perifraza" atamasining tilshunoslar tomonidan tasniflanishi tahlili natijasida ularning definitiviyasida quyidagi ta'riflarning keng tarqalganini aniqladik:

1. Perifrazalarni "ikkilamchi nominatsiya" birligi sifatida o'rganish. Bunda atoqli otlarning perifrazalari pretsedent birlik sifatida talqin qilingan bo'lib, ular mazmunidagi semantik-kognitiv ifodalar barcha tomonidan birdek oson interpretatsiya, ya'ni qayta tiklanishi mumkin bo'ladi. Ikkilamchi nominatsiyani aks ettiruvchi atoqli otlarning perifrazasida odatda shu nom bilan bog'liq ayrim belgi-xususiyatlar, masalan: *Roof of the World* – dunyo tomi (Everest), *Forbidden City* – o'liklar shahri (Lxasa), *Empire City* – imperial shahar (Nyu-York), *Island Continent* – orol qit'a (Avstraliya) kabi perifrazalar mazmunida o'ziga xos lingvokulturologiya va milliy madaniyatga oid konseptlar mavjud bo'lsa-da, ular ular bilan tanish bo'lmagan kishilar tomonidan ham osongina anglashilishi mumkin.

2. Tasviriy sifatlash orqali hosil qilingan nominatsiyalarning o'rganilishi, ularning tilshunoslikdagi statusi va yo'nalishining o'ziga xos tatbiqi perifrazalar hisoblanadi. Bunday perifrazalarda atoqli otlarga tegishli "ma'lum bir jihat, xususiyat yoki belgi oldin-

gi planga chiqarilib, keltiriliyotgan kontekst vaziyat yoki mulqot aktiga mos bo'lishi" talab qilinadi [2]. Jumladan, o'zbek tilidagi "metallurglar shahri" (Bekobod), "Gullar shahri" (Namangan), "mamlakatimiz poytaxti" (Toshkent), "Respublika sihatxonasi" (Zomin) kabi perifrazalar shular jumlasidandir. Bunday shakldagi atoqli otlarning perifrazalari ingliz tiliga ham mos bo'lib, mos ravishda, *The Promised Land* (Kaan), *City of Arabian Nights* (Bag'dod), *City of Sky Scrapers* (Nyu-York), *City of Golden Gate* (San Fransisko), *America's motor city* (Detroyt) kabi perifrazalar odatda shu shaharlarga tegishli ma'lum bir alohida belgi-xususiyatni ifodalovchi komponent mavjudligi va bu jihat "so'zlovchi uchun muhim" ekanligi bilan farqlanadi [3: 228]. L.V.Grexnyova fikriga ko'ra, nominativ perifraza yadrosida ifodalangan belgi-xususiyat har doim ham muhim bo'lmasa-da, faqat so'zlovchi uchun shu kontekstda ahamiyat kasb etishi bilan xarakterlanadi. Ammo tasviriy nominatsiyaga asoslangan perifrazalarda shaxsiy individual yondashuv kuchli bo'lib, ko'p hollarda birlikdagi lingvokulturologik va ijtimoiy ahamiyatga mo'lik ayni bir perifraza boshqa tillarda tamomila boshqa nominatsiyani ifoda qilish mumkin.

3. Atoqli otlarning ikkilamchi nominatsiyasi shaklida yaratilayotgan perifrazalarning yana bir alohida ko'rinishi majoziy sifatlash bo'lib, birikma tarkibidagi komponentlardan biri majoziy yoki ko'chma ekspressiv ma'noda qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, ingliz tilidagi *The Imperial City* – Rim, *The Promised Land* va *Holy Land* – Falastin, *City of Saints* – Solt Leyk siti kabi perifrazalar diniy qarashlar ta'sirida shakllangan bo'lib, boshqa dindagi kishilar uchun deyarli notanish hisoblanadi yoki tamoman o'z mohiyatini yo'qotadi. Biroq, *Eternal City* – Rim, *Big Apple* – Nyu York, *Hanging Valleys* – Shveysariya, *Herring Pond* – Shimoliy Atlantika, *City of conference* – Jeneva, *City of bazaars* – Qohira kabi boshqa perifrazalarda birikma komponentlaridan biri ijtimoiy-tarixiy voqealarga aloqadorlikni aks ettirishidan qat'i nazar global xarakter kasb etadi va boshqa xalqlarga ham deyarli tushunarli bo'lishi kuzatiladi: *The Big Apple is filled with young kids trying to get into show business* (Nyu-York shou-biznesda o'z imkoniyatlarini sinab ko'rmoqchi bo'lgan yoshlar bilan to'lib tushgan edi).

Odatda zamonaviy tilshunoslikda perifrazalar ekspressiv birliklar sifatida talqin qilinadi [4]. Biroq ko'chma majoziy ma'noda qo'llaniladigan perifrazal birliklar ayrim tadqiqotlarda "o'ta ekspressiv" yoki "yuqori ekspressiv va ifodali" birikmalar [5: 77] deb ham atalgan bo'lib, aks ettiriliyotgan semaning kuchli emotsional-ekspressiv bo'yqador bo'lishini talab qiladi. Jumladan, "oq oltin" perifrasi asosida paydo bo'lgan "oq azob" (paxta

yig'imi), "oq o'lat" (geroin), "oq bug'doy" (guruch) kabi perifrazalarda ma'lum ma'noda kuchli ekspressivlikni kuzatish mumkin [2].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, atiqli otlar, ayniqsa, shahar va mamlakatlar nomlarining ikkilamchi nominatsiyasi sifatida qo'llaniluvchi perifrazalar alohida til birligi o'laroq o'z o'rniga ega bo'lib, murakkab struktural-semantikani aks ettiruvchi birliklar sifa-

tida shakllanib ulgurgan. Ko'p hollarda ularning struktural-semantik jihatlari frazeologik birliklarga tenglashib, o'z ifoda plani, mazmun ko'lamini va kompozitsion shakllanishiga ko'ra frazeologizmlardan farqlanadi. Shunga ko'ra, ularni alohida til birligi sifatida til sohasi onomastik birliklari shaklida tadqiq qilish zarurati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Апресян Ю.Д. Синонимические средства языка и правила перефразирования // Русск. яз. в нац. шк., 1972, № 3. – С. 19–27.
2. Бельчиков Ю.А. Перифраза // Русский язык: энцикл. / под. ред. Ю.Н. Караулова. 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: Науч. изд-во «Большая Российская энциклопедия», 2003. – С. 637–371.
3. Матвеева Т.В. Учебный словарь. Русский язык. Культура речи. Стилистика. Риторика. – Москва: Флинта; Наука, 2003.
4. Григорьев В.П. К проблеме перифразы // Сборник докладов и сообщений лингвистического общества. Т. IV. – Калинин, 1974. – С. 158–274.
5. Бытева Т.И. Основы лингвистической теории перифразы: учеб. пособие. – Красноярск: Изд-во Краснояр. гос. ун-та, 2004.

G'iyosiddin USMONOV,

Qo'qon davlat pedagogika instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida stajor-o'qituvchisi

FITRATNING BADIY ASARLARI INGLIZCHA TARJIMALARIGA ILMIY MUNOSABATLAR (Shon Tomas Lions tahlili asosida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitrat badiiy asarlari xorijlik olimlar tomonidan chet tilga zo'r qiziqish bilan tarjima qilinib, chuqur tahlil etganligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: drama, tragediya, tarixiy parallel, kvazisovet, empirik, munozara, Abulfayzxon, islohotchi, bolsheviklar.

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что художественные произведения Абдурауфа Фитрата с большим интересом переводились на иностранные языки и глубоко анализировались зарубежными учеными.

Ключевые слова: драма, трагедия, историческая параллель, квазисоветский, эмпирический, дискуссия, Абульфайзхан, реформатор, большевики.

Annotation. This article discusses the fact that Abdurauf Fitrat's works of art have been translated into foreign languages with great interest and analyzed in depth by foreign scholars.

Key words: drama, tragedy, historical parallel, quasi-soviet, empiric, debate, Abulfayzkhon, reformer, Bolsheviks.

Amerikaning Virjiniya universiteti professori Shon Tomas Lions Fitratning ijodiga ixlos qo'ygan xorijlik olimlardan biri bo'lib, u jadidchi adibning "Abulfayzxon" dramasi tahliliga alohida e'tibor bilan yondashgan. Lions drama tahlilini "Abdurauf Fitrat's modern Bukharan tragedy" ("Abdurauf Fitratning zamonaviy Buxoro tragediyasi") deb nomlangan maqolasida bergan va uni Markaziy Osiyo izlanishlariga bag'ishlangan xalqaro jurnalning 2000-yil 5-sonida chop ettirgan [1].

Muallif dastlab asarga ta'rif berarkan, quyidagilarni yozadi: "Abulfayzkhon, a historical drama written by the Uzbek author Abdurauf Fitrat in 1924, will be examined as a rein vocation of the native past against Soviet colonialism. We will consider this drama as a historical par-

allel. How Abulfayzkhon represents historical reality is not suspended from the process or representing Soviet colonialism in Bukhara, an ancient Central Asian emirate that was transformed into a quasi-Soviet protectorate after the last amir was overthrown by the Bolshevik military in 1920".

Keltirilgan ushbu parchada, avvalo, Abdurauf Fitrat "Abulfayzkhon" tarixiy dramasi 1924-yilda ona yurtining o'tmishidan olib yozgani, bu esa o'sha davr mustamlakachilik siyosatiga qarshi ekani ta'kidlanmoqda. Shundan kelib chiqib, tadqiqotchi bu dramaga "tarixiy parallel" sifatida qarashini bildirgan. Abulfayzkhon tarixiy shaxs bo'lishiga qaramay, sovet mustamlakachiligi davrida Buxorodagi jarayonlarda ishtirok etmagani, ammo qad-